

TALABALARDA MEDIA VA AXBOROT KO'NIKMALARI YORDAMIDA TANQIDIY
FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xidirova Umida Erkin qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

umidaxidirova85@gmail.com tel:(+99894)4887801

Annotatsiya. Maqolada media ta'lim sharoitida yoshlarning tafakkurini rivojlantirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda "media", "savodxonlik", "mediasavodxonlik" tushunchalarining mazmuni va mohiyati, talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik zaruriyat ekanligi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, internet, tahdid, "ommaviy madaniyat", ijtimoiy tarmoq, axborot, axborot madaniyati, media, savodxonlik, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, media ta'lim, media kompetensiya, ijtimoiy hayot, mediamadaniyat

Abstract. The article of developing the thinking of young people in the context of media education, as well as the content and essence of the concepts of "media", "literacy", "media literacy", and the fact that it is a pedagogical necessity to develop media literacy in students, are discussed

Key words: Youth, internet, threat, "mass culture", social network, information, information culture, social life, media culture

Mamlakatimizda so'ngi yillarda axborot xizmatlar tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Internet tufayli yangiliklar yorug'lik tezligida butun dunyo bo'ylab sayohat qilishi, yolg'on, fitna nazariyalari, noto'g'ri ma'lumotlar ham shunday bo'lishi mumkin. Internetda yolg'on haqiqiy dunyoga zarar yetkazishi mumkin. Ba'zilar soxta yangiliklar balosiga qarshi kurashish uchun texnologiya qoidalariga e'tibor qaratsada, eng kuchli himoya bu mediasavodxonligi kuchli bo'lgan fuqarolarni shakllantirishdir. Mediasavodxonlik hozir har qachongidan ham muhimroq. Mediasavodxonlikning eng oddiy ta'rifi: turli shakldagi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kirish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir

Sof texnik jihatlar va kompetensiya xususiyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, talabalarning axborot madaniyati va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish muammosi ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Virtual makon axborotni tarqatish tezligi, aloqa imkoniyatlari va ilmiy ma'lumotlar almashinuvi nuqtai nazaridan sezilarli afzalliklarga ega. Shu bilan birga, tahdidlar, xususan, kiberjinoyatchilik, tajovuzkorlik, qaramlik va manipulyatsiyaning o'sishi aniq. Bu, ayniqsa, yoshlar muhitida yaqqol namoyon bo'ladi. Zamonaviy OTMda milliy elitani yaratish, axborot makonining ochiqligi, globallashtirish, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi ta'lim siyosatini aniqlashtirish va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tezkor ma'lumotlarni talab qiladi. Talabalarning axborot-tahliliy qobiliyatlari pastligi bilan kompyuter texnikasi bilan ishlashni tashkil etishga qo'yiladigan talabalarning yuqori darajasi o'rtasida ziddiyat borligi

tobora oydinlashib bormoqda; nazariy va amaliy bilimlarning yetarli darajasi va axborot texnologiyalari bilan ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarining past darajasi; kasbiy tayyorgarlikning yetarli darajasi va kompyuter texnologiyalaridan o'quv faoliyatida foydalanishga tayyorlikning past darajasi. Axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning insonning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq qirralaridan biri sifatida qaraladi va uning turli ijodiy qobiliyatlari mahsulidir. Yangi chaqiriqlarga tezkorlik bilan javob berish va talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish imkonini beruvchi original ixtisoslashtirilgan kurslarga bo'lgan ehtiyoj doimiy ravishda ortib bormoqda.

"Mediasavodxonlik" atamasi ko'pincha ommaviy axborot vositalari va media texnologiyalar bilan bog'liq boshqa atamalar bilan o'zaro almashtiriladi. Mediasavodxonlik haqida gapirayotganda nimani nazarda tutayotganimizni aniqlashtirish uchun mediasavodxonlik bo'yicha quyidagi ta'riflarni keltirib o'tamiz: Ommaviy axborot vositalari deganda xabarlarni uzatish uchun foydalaniladigan barcha elektron yoki raqamli vositalar hamda bosma yoki badiiy tasvirlar tushuniladi. Savodxonlik- bu belgilarni kodlash, dekodlash, xabarlarni sintez qilish va tahlil qilish qobiliyati. o Mediasavodxonlik- bu ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan belgilarni kodlash va dekodlash qobiliyati hamda vositachi xabarlarni sintez qilish, tahlil qilish va ishlab chiqarishni o'rganish. Media ta'lim- bu ommaviy axborot vositalarini, shu jumladan „amaliy“ tajriba va media ishlab chiqarishni o'rganish. Fresno Tinch okeani universiteti ma'lumotiga ko'ra, "Mediasavodxonlik talabalarga ommaviy axborot vositalarining dono iste'molchilari, shuningdek o'z ommaviy axborot vositalarining ma'suliyatli ishlab chiqaruvchilari bo'lishiga yordamberadi. Xuddi shu yo'nalishda mediasavodxonlikni o'rgatish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday fikrlash turi oxir oqibat insonning ikkinchi tabiatiga aylanishi mumkin, bu ularga ulg'aygan sari ko'p sohalarda yordam beradi". Auditoriyada talabalarning media va yangiliklar savodxonligi ustida ishlashi o'z hayotining barcha jabhalarida kuchli tanqidiy fikrlovchi bo'lishiga yordam beradi. Axborot jamiyati bugungi kunda zamonaviy universitet oldiga ko'plab muammolarni qo'yimoqda. Internet va zamonaviy texnologiyalar nafaqat ma'lumotlarni yetishmasligini to'ldirdi, ortiqcha vaqt sarfining oldi olindi an'anaviy ta'lim normalarining jiddiy raqobatchisiga aylandi. O'qituvchi va talabalar oldida doimiy ravishda o'z media kompetensiyasini oshirish uchun yangi resurslarni izlashga majbur bo'lmoqdalar

Talabalarda media va axborot ko'nikmalarini rivojlantirish ilg'or mediakompetensiyani talab qiladi. O'qituvchilar auditoriyada multimediya proyektoridan (bugungi kunda kamdan kam hollarda taqdimotsiz ma'ruza qilinadi), videomateriallardan, interaktiv doskadan faol foydalanadilar. Ba'zi o'qituvchilar muloqot qilish uchun ijtimoiy sahifa ochdilar va o'quvchilar uchun so'ngi ma'lumotlarni joylashtirdilar. Bunda onlayn jamiyat a'zolari professional rivojlanish uchun foydalanishadi. Media ta'lim natijasida mediasavodxonlik faqat o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi yoki axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmaydi. Media ta'lim konsepsiyasiga kengroq qarash talab etiladi. Axborotdan samarali va tezkor foydalanishda talaba muayyan muammoni hal qilishda zarur bo'lgan ma'lumotlar turini aniqlay oladi, bu ma'lumotlarga samarali va tez kirishi mumkin; qiziqtirgan malumotlarga

kirish uchun kalit so'z va tegishli atamalarni aniqlashi; potensial axborot manbalarining turli xil turlarini, formatlarini aniqlashi va yana ko'plab ishlarni bajarishi mumkin. Axborot va axborot manbalarini tanqidiy baholash kompetensiyasi. Talaba ma'lumot va uni olish manbalarini tanqidiy baholay oladi va tanlangan ma'lumotlardan muammolarni hal qilish va g'oyalarni tahlil qilish uchun foydalana oladi hamda manbaning ishonchligi uning to'g'riligi, aniqligini tahlil eta oladi. Mediasavodxonlik ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda qadriyatlan yetkazish, sharhlash va takomillashtirish qobiliyatidir. Mediasavodxonlik ta'limi- bu foydalanuvchining ongli bo'lishiga, talqin qilish qobiliyatini rivojlantirishga, yangiliklarni tog'ri tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga, tomoshabinga yangiliklarni to'g'ri tahlil qilish va tanqidiy nuqtayi nazarga ega bo'lish qobiliyatini yaratishi ma'lum bo'ldi.

Tanqidiy fikrlash yordamida tahlil qilish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi yordamisiz duch kelganda, talabalar qaysi manba ishonchli ekanini qanday bilishadi? Ular You tubeni tomosha qilmoqdami, yangiliklar o'qiyaptimi yoki tasvirlarni tahlil qilyaptimi, talabalar ma'lumotni tushunish, uni kontekstga solish va haqiqiy yoki sohtani farqlay olish ko'nikmalariga muhtoj. Buning usullaridan biri talabalarni ommaviy axborot vositalarini tahlil qilish va baholashda savollar berishga o'rgatishdir: Muallifi kim? Uning maqsadi nima? (xabar berish, ko'ngil ochish, ishontirish) Boshqa odamlar bu habarni qanday talqin qilishlari mumkin? o Ba'zi tafsilotlar qoldirganmi? Nega? Shuningdek, o'ylab ko'ring: manbalar keltirilganmi? Grammatik va imlo xatolari bormi? Bundan tashqari talabalarga o'zlari haqida o'ylashi uchun vaqt va imkoniyat berish, hamda ularga qanday savol berishni o'rgatish, ular ommaviy axborot vositalarini mustaqil ravishda tahlil qilish va baholashni o'rganishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mediasavodxonlik natijasida talabalar hayotda umuman ta'lim jarayonida ham axborotlarni sifatini tahlil etish va baholash ko'nikmalarini egallaydilar⁵⁹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Media_savodxonlik
2. <https://www.waterford.org/education/build-media-literacy-in-your-students/>
3. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O.,quv-amaliy qo'llanma. -T.: Extremum-press, 2017
4. Mamatov O. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik yondashuv
4. Safiya Xolmirza qizi Qundizaliyeva. __MEDIA TA'LIM SHAROITIDA YOSHLARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA USULLAR

⁵⁹ Safiya Xolmirza qizi Qundizaliyeva. __MEDIA TA'LIM SHAROITIDA YOSHLARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA USULLAR